

JURNALISTIKANING ASOSIY TAMOYILLARI. BUGUNGI KUN OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI.

Bekzod O'rinov Komilovich

bek_2008_85@mail.ru

tel: (99) 080 10 78

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192905>

ANNOTATSIYA

Bugunning talabiga javoban jurnalistika umuman o'zgardi. Sababi jurnalistika jamoat manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish uchun mo'ljallangan va ma'lumot to'plash va baholash uchun maxsus usullardan foydalanadi. Bugungi ilmiy ish orqali ommaviy axborot vositalarini rivojlanishi, OAV ning zamonaviy xususiyatlari va ularning turlari, bugungi kunda ommalashish sabablari, jahon siyosatida tutgan o'rni ilmiy ishimizning qisqacha annotatsiyasi hisoblanadi

Kalit so'zlar. Jurnalistika, jurnalist, muxbir, OAV (media), televideniya, informatsiya, matbuot, radio, jurnal, gazeta.

Jurnalistika — ijtimoiy faoliyat turi. Bu faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari va boshqalar) orqali tarqatish bilan shug'ullanadi. Jurnalistika ommaviy targ'ibot va tashviqot shakllaridan biri. Jurnalistikaning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bog'liq. Jurnalistika atamasi dastlab jurnallar majmuiga, keyinchalik barcha davriy nashrlarga nisbatan qo'llanilgan. Endilikda jurnalistika iborasi jurnalistika faoliyati mahsulini, shu bilan bog'liq kasblar majmuini, shuningdek, shu sohaga oid ta'limni va fan tarmog'ini ham anglatadi. Jurnalistika faoliyati tarkibiga matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari, hujjatli kino va boshqalar kiradi. Jurnalist — asosiy faoliyati jurnalistika bilan shug'ullanish bo'lgan, muhim faktlar, voqealar, odamlar, hodisalar haqidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash va uni auditoriyaga yetkazish orqali OAVni axborot bilan to'ldiruvchi kishi. 1997-yilda bir guruh amerikalik jurnalistlar OAV ning jamiyatga salbiy ta'siri va unga bo'lgan ishonchni pasayganligi munosabati bilan "Tashvishlangan jurnalistlar qo'mitasi"ni tuzishadi. Keyingi bir necha yil mobaynida qo'mita qator uchrashuv, seminarlar tashkillashtirildi, jurnalist, muharrir va o'quvchilarga so'rovnomalar tarqatilib ularning fikrlari bilan tanishib chiqishdi. Bu muhokamalarda 3000 dan ortiq mutaxassislar ishtirok etdi. Qo'mita natijalarga asoslanib quyidagi to'qqiz asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi:

1. Haqqoniylik – jurnalistning birinchi muhim vazifasi hisoblanadi;
2. Jurnalistika eng avvalo insoniyatga sodiq bo'lishi lozim;
3. Jurnalistika mohiyati haqiqat namolik hisoblanadi;

4. Jurnalistlar yoritayotgan voqea-hodisalaridan qat'iy nazar mustaqilligini saqlab qolishi kerak;
5. Jurnalistika rahbariy organlar faoliyatini mustaqil ravishda monitoring qilishi;
6. Ochiq munozara, jamiyat tanqidiy fikrini bildirish va murosaga kelish uchun mo'ljallangan axborot maydonni ta'minlashi kerak;
7. Jurnalistika qiziq va muhim materiallarni tayorlashi kerak;
9. Jurnalistlarni vijdonan ish ko'rishga va faoliyat olib borishga shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Yuqorida

berilgan jurnalistikaning ixtiyoriy tamoyiliga asoslanishdan avval eng asosiy bo'lgan tamoyil – xaqqoniylik tamoyilidan chetlashish mumkin emas. Zero, tarixda xaqqoniylikni chetlab o'tgan jurnalistik ishlarning natijasida bo'lib o'tgan mojarolar va qurbonlar soni kam bo'lmagan. Agar bir tamoyil ikkinchi tamoyilga qarshi xizmat qilayotgan vaziyat kelib chiqsa va boshqa har qanday qarama-qarshilikda faqat va faqat birinchi tamoyilni ustun qo'yish ta'minlanishi lozim!!! Ommaviy axborot vositalarining vujudga kelish asoslari avvalo matbuotning mohiyati, uning insoniyat jamiyatida tutgan g'oyatda muhim o'rni bilan bog'liqdir. Ma'lumki, matbuot ijtimoiy hayotni aks ettirish shakllaridan biri, voqelikni bilish, tadqiq etish va unga qaytadan ta'sir etishning muhim vositasidir. Ijtimoiy informatsiya yig'ish va tarqatishdan iborat bo'lgan ulkan funksiyani bajaruvchi matbuot insoniyat tarixida, jamiyat hayotida naqadar muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekanligini uning taraqqiyoti davomida turli xil ko'rinishlar kasb etganligida ham yaqqol ko'ronadi. Gazetalar faoliyati asosida matbuotning ichki qonuniyatlari, bosh qoidalari vujudga keldi, gazetachilik - matbuotshunoslik fani paydo bo'ldi. Mana, to 'rt asrdan buyon gazeta insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy - ma'naviy hayotining ajralmas bir bo'lagiga aylandi va unga xizmat qilib kelmoqda. Jurnal - gazetadan farqli ravishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotining ichki, chuqur qatlamlarini o'zida aks ettiruvchi matbuot nashridir. Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti, inson aql-tafakkurining rivojlanishi natijasida ana shunday matbuot turiga ehtiyoj sezildi. Internet- hudud bilmas masofa va kengliklar osha informatsiya va turli ma'lumotlar tarqatib ommaviy axborot vositalari tasnifida o'ziga xos, oldingi o'rinlardan birini egalladi va u tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari tasnifida kitob va kitob nashriyotlari ham alohida o'rin tutadi. Kitob aslida vaqtli matbuot turi emas, umuman matbuot - bosma nashrlar tasnifiga kiradi, ammo ko'p jihatdan vaqtli matbuotga yaqin turadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent, « O'zbekiston», J992.
2. Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida. O'zR Qonuni. To'rtinchi hokimiyat.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. Toshkent, « O'zbekiston», 1998, 51-bet

3. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida. O'zR Qonuni. To'rtinchi hokimiyat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. Toshkent, O'zbekiston*, 1998, 58-bet
4. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida. O 'zR Qonuni. To'rtinchi hokimiyat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa huijatlari to'plami. Toshkent, «O'zbekistom , 1998, 63-bet
5. Noshirlik faoliyati to'g'risida. O 'zR qonuni. To'rtinchi hokimiyat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plami. Toshkent, "O'zbekiston", 1998, 8—12 betlar.